



---

## Oliy taʼlimda flipped classroom modeli asosida talabalar mustaqil taʼlimi va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish

---

**Oʻrinova Nilufar Muhammadovna** –

Fargʻona davlat universiteti,  
“Pedagogika” kafedrası professori,  
pedagogika fanlari doktori (DSc)  
E-mail: [urinovanilufar15@gmail.com](mailto:urinovanilufar15@gmail.com)  
ORCID: <https://orcid.org/0000-0001-5430-1050>

**Jalolova Shukrona Jamshid qizi** –

Fargʻona davlat universiteti magistranti

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada Flipped Classroom (teskari sinf) modelining oliy taʼlim tizimidagi oʻrni, shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasida taʼlim tizimini rivojlantirishga qaratilgan Prezident qarorlari va farmonlari asosida mazkur modelni joriy etishning dolzarbligi asoslab berildi. Tadqiqot davomida modelning nazariy asoslari, xorijiy tajribalar, pedagogik mexanizmlar va amaliy qoʻllash usullari oʻrganildi. Natijalar Flipped Classroom modelining talabalarda mustaqil taʼlim, tanqidiy fikrlash va analitik yondashuv kompetensiyalarini rivojlantirishga sezilarli taʼsir koʻrsatishini tasdiqlaydi.*

***Kalit soʻzlar:** Flipped Classroom, mustaqil taʼlim, tanqidiy fikrlash, oliy taʼlim, innovatsion pedagogika, raqamli taʼlim.*

## Развитие самостоятельного обучения и критического мышления студентов в высшем образовании на основе модели flipped classroom

***Аннотация.** В данной статье обоснована роль модели перевёрнутого класса (Flipped Classroom) в системе высшего образования, а также актуальность её внедрения в Республике Узбекистан на основе указов и постановлений Президента, направленных на развитие образовательной системы. В ходе исследования были изучены теоретические основы модели, зарубежный опыт, педагогические механизмы и практические способы применения. Результаты подтверждают, что модель Flipped Classroom оказывает значительное влияние на развитие у*

*студентов навыков самостоятельного обучения, критического мышления и аналитического подхода.*

**Ключевые слова:** *Flipped Classroom, самостоятельное обучение, критическое мышление, высшее образование, инновационная педагогика, цифровое образование.*

## **Development of students' independent learning and critical thinking in higher education based on the flipped classroom model**

**Annotation.** *This article substantiates the role of the Flipped Classroom model in the higher education system, as well as the relevance of its implementation in the Republic of Uzbekistan based on presidential decrees and resolutions aimed at developing the education system. The study examined the theoretical foundations of the model, international experience, pedagogical mechanisms, and practical implementation methods. The results confirm that the Flipped Classroom model has a significant impact on the development of students' independent learning, critical thinking, and analytical skills.*

**Keywords:** *Flipped Classroom, independent learning, critical thinking, higher education, innovative pedagogy, digital education.*

### **KIRISH**

XXI asrda ta'lim tizimi jadal rivojlanayotgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, global integratsiya jarayonlari va bilimga asoslangan iqtisodiyot talablariga mos ravishda tubdan yangilanmoqda. Zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun nafaqat tayyor bilimlarni egallash, balki ularni mustaqil ravishda izlash, tahlil qilish va amaliyotda qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois an'anaviy, ya'ni o'qituvchi markazli ta'lim modeli o'zining cheklanganligi sababli zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirishda yetarli samara bermay qolmoqda. Ayniqsa, bunday yondashuvda talaba passiv tinglovchi sifatida qolib ketadi, bu esa uning mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatini to'liq rivojlantirishga imkon bermaydi. Mazkur muammolarni bartaraf etish zarurati ta'lim tizimini modernizatsiya qilishni, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etishni va talabalarni mustaqil o'rganishga yo'naltirishni dolzarb vazifaga aylantirdi. Ayniqsa, tanqidiy fikrlash, analitik yondashuv va ijodkorlik kabi yuqori darajadagi kognitiv ko'nikmalarni shakllantirish zamonaviy ta'limning asosiy maqsadlaridan biri sifatida qaralmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini rivojlantirish va uni xalqaro standartlarga moslashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmonida oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlanib, unda ta'lim sifatini oshirish, o'quv rejalari va dasturlarini zamonaviy talablar asosida yangilash, shuningdek, ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish muhim vazifalar sifatida belgilangan [1, 2]. Bu esa bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda innovatsion pedagogik yondashuvlardan, xususan, Flipped Classroom texnologiyasidan samarali foydalanishni talab etadi.

Mazkur farmonning qabul qilinishiga bir qator omillar sabab bo'lgan. Avvalo, global ta'lim tizimidagi raqobatning kuchayishi, xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallash zarurati hamda mehnat bozorida yuqori malakali, mustaqil fikrlay oladigan kadrlar ehtiyojining ortib borishi bu qarorning asosiy sabablaridan biridir. Shuningdek, an'anaviy

o'qitish usullarining samaradorligi pasayib borayotgani va talabalar faolligining yetarli darajada emasligi ham ushbu islohotlarni jadallashtirishni talab qildi. Natijada mazkur farmon oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, o'quv jarayonini innovatsion asosda tashkil etish va talaba shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan yangi bosqichni boshlab berdi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni – “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi hujjatda ta'lim sifati, pedagoglar malakasi, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash hamda kompetensiyalarni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor strategik maqsadi sifatida belgilangan [2, 2]. Mazkur vazifalarni samarali amalga oshirish zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, xususan, Flipped Classroom modelini ta'lim jarayoniga keng joriy etishni taqozo etadi. Yuqoridagi normativ-huquqiy hujjatlar nafaqat ta'lim tizimini yangilash zaruratini asoslab beradi, balki amaliy jihatdan innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etishga kuchli turtki bo'ldi. Shu nuqtai nazardan, Flipped Classroom modeli zamonaviy ta'lim talablariga to'liq javob beruvchi samarali yondashuv sifatida e'tirof etilmoqda.

Flipped Classroom modeli o'quv jarayonini an'anaviy shakldan tubdan farq qiladigan tarzda tashkil etadi. Ushbu model dastlab Jonathan Bergmann va Aaron Sams tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, unda nazariy bilimlar mustaqil ravishda, asosan, raqamli resurslar orqali o'zlashtiriladi, auditoriya vaqti esa muhokama, tahlil, amaliy mashg'ulotlar va ijodiy faoliyatga bag'ishlanadi [4, 18]. Mazkur yondashuvning asosiy afzalligi shundaki, u talabani passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi, uning o'rganish jarayonidagi mas'uliyatini oshiradi hamda mustaqil ta'lim va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Aynan shu jihatlari bilan Flipped Classroom modeli zamonaviy ta'lim tizimida dolzarb pedagogik yechim sifatida namoyon bo'lmoqda.

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI**

Flipped Classroom modeli bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar uning ta'lim samaradorligini oshirishdagi muhim vosita ekanligini keng tasdiqlaydi. Ushbu model an'anaviy o'qitish tizimini qayta ko'rib chiqishga asoslanib, o'quv jarayonini talaba markaziga yo'naltirishga xizmat qiladi. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda Flipped Classroom yondashuvi nafaqat bilim berish, balki talabalarni mustaqil o'rganishga yo'naltirish, ularning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish va o'quv jarayonida faol ishtirokini ta'minlash vositasi sifatida baholanadi.

Jacob Lowell Bishop va Dr. Matthew A. Verleger tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda Flipped Classroom modeli “interaktiv o'rganish va individual bilim olish jarayonlarini uyg'unlashtiruvchi innovatsion yondashuv” sifatida tavsiflanadi [5, 9]. Ularning fikriga ko'ra, ushbu model o'quv jarayonida ikki asosiy komponentni birlashtiradi: sinfdan tashqari individual o'rganish va sinf ichidagi faol, interaktiv faoliyat. Bu esa talabalar tomonidan bilimni chuqurroq o'zlashtirishga imkon yaratadi. Lakmal Abeysekera va Phillip Dawson tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda Flipped Classroom modelining kognitiv yuklamani optimallashtirishdagi ahamiyati alohida ta'kidlangan. Ularning fikriga ko'ra, mazkur model talabaga o'quv materialini o'ziga qulay tezlikda o'zlashtirish imkonini beradi, natijada ortiqcha kognitiv yuklama kamayib, o'rganish jarayoni yanada samarali tashkil etiladi [3, 6]. Bundan tashqari, mualliflar ushbu yondashuv talabalarni o'quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirishi orqali ularning o'quv motivatsiyasini oshirishini ham qayd etadilar.

Zamonaviy tadqiqotlarda Flipped Classroom modelining yana bir muhim jihati sifatida uning tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga ta'siri alohida e'tirof etiladi. Tanqidiy fikrlash nazariyasi doirasida Richard Paul va Linda Elder tanqidiy fikrlashni “axborotni tahlil qilish, baholash va asoslangan xulosalar chiqarish jarayoni” sifatida izohlaydi [7, 41]. Ularning

yondashuviga ko'ra, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun o'quv jarayonida muhokama, tahlil va refleksiya muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan Flipped Classroom modelida ushbu elementlar markaziy o'rin egallaydi. Bundan tashqari, konstruktivistik pedagogika nazariyasi ham Flipped Classroom modelining nazariy asosini tashkil etadi. John Dewey ta'limni faoliyat va tajriba asosida tashkil etish zarurligini ta'kidlab, bilim inson tomonidan faol ravishda shakllantirilishini ilgari surgan [6, 45]. Ushbu g'oya Flipped Classroom modelida to'liq o'z aksini topadi, chunki bu yondashuvda talaba bilimni tayyor holda qabul qilmaydi, balki uni mustaqil ravishda o'zlashtiradi va amaliy faoliyat orqali mustahkamlaydi. Shuningdek, so'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar Flipped Classroom modelining raqamli ta'lim muhitida samarali ishlashini ko'rsatmoqda. Xususan, bu model masofaviy va aralash ta'lim (blended learning) tizimlarida keng qo'llanilib, o'quv jarayonining moslashuvchanligini oshiradi hamda individual yondashuvni ta'minlaydi. Bu esa talabalar o'rtasida bilim darajasidagi farqlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Ayrim tadqiqotlarda ushbu modelni samarali joriy etish uchun zarur shart-sharoitlar – raqamli infratuzilma, o'qituvchilarning metodik tayyorgarligi va talabalar motivatsiyasi muhim omillar sifatida ko'rsatilgan. Bu esa Flipped Classroom modelini joriy etishda kompleks yondashuv zarurligini anglatadi.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Mazkur tadqiqot kompleks yondashuv asosida olib borildi. Tadqiqot jarayonida Flipped Classroom modelining talabalar mustaqil ta'limi va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishdagi samaradorligi nazariy va amaliy jihatdan o'rganildi.

*Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:*

- ilmiy-nazariy tahlil;
- pedagogik kuzatuv;
- tajriba-sinov ishlari;
- qiyosiy tahlil.

Ilmiy-nazariy tahlil orqali Flipped Classroom modeliga oid xorijiy va mahalliy tadqiqotlar o'rganilib, uning didaktik imkoniyatlari tahlil qilindi. Pedagogik kuzatuv yordamida talabalar faolligi, mustaqil ishlash darajasi va o'zlashtirish ko'rsatkichlari monitoring qilindi. Tajriba-sinov ishlari jarayonida Flipped Classroom modeli amaliy darslarga joriy etilib, uning samaradorligi baholandi. Qiyosiy tahlil orqali esa an'anaviy va innovatsion yondashuvlar o'rtasidagi farqlar aniqlashtirildi.

Flipped Classroom modelini amalga oshirish quyidagi bosqichlar orqali tashkil etildi:

#### ***1. Oldindan mustaqil o'rganish (Pre-class learning)***

Mazkur bosqichda talabalar yangi mavzuni auditoriyaga kelishdan oldin mustaqil ravishda o'zlashtiradilar. Bunda video ma'ruzalar, podkastlar, elektron darsliklar, ilmiy maqolalar va turli onlayn platformalardan keng foydalaniladi. Ushbu jarayon talabalarga o'quv materialini o'ziga qulay vaqt va individual tezlikda o'rganish imkonini beradi.

Oldindan mustaqil o'rganish bosqichi talabaning passiv tinglovchidan faol o'rganuvchiga aylanishida muhim rol o'ynaydi. Talaba mavzu bilan dastlabki tanishuvni mustaqil amalga oshirgani sababli, unda savollar shakllanadi va bu keyingi auditoriya jarayonida faol ishtirok etishiga zamin yaratadi.

Mazkur bosqich quyidagi kompetensiyalarni rivojlantiradi:

- o'z-o'zini boshqarish (self-regulated learning);
- vaqtni samarali rejalashtirish;
- mustaqil axborot izlash va uni tahlil qilish;
- raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish.

Natijada talabalarda o'quv jarayoniga nisbatan mas'uliyat hissi ortadi va mustaqil ta'lim olishga tayyorlik shakllanadi.

#### ***2. Interaktiv faoliyat (Interactive learning)***

Flipped Classroom modelida auditoriya vaqti asosan interaktiv faoliyatga yo'naltiriladi. Bu bosqichda talabalar oldindan o'zlashtirilgan bilimlarini muhokama qiladi, tahlil qiladi va amaliy jihatdan qo'llaydi. O'qituvchi esa bilim beruvchi emas, balki fasilitator sifatida jarayonni boshqaradi.

“Brainstorming”, “debat”, “case-study”, “think-pair-share” kabi metodlar orqali talabalar o'z fikrlarini erkin ifoda etadi, boshqa ishtirokchilarning qarashlarini tinglaydi va ularni baholaydi. Ayniqsa, debat va muhokama jarayonlari talabalarni o'z fikrini asoslash, dalillar keltirish va qarama-qarshi fikrlarni tahlil qilishga o'rgatadi.

Mazkur bosqich quyidagi ko'nikmalarni rivojlantiradi:

- muloqot va hamkorlik kompetensiyasi;
- tanqidiy fikrlash;
- argumentatsiya va dalillash;
- jamoada ishlash.

Natijada talabalar bilimni faqat eslab qolmaydi, balki uni chuqur anglaydi va faol ravishda qo'llay boshlaydi.

### *3. Muammoli vaziyatlar asosida o'qitish (Problem-based learning)*

Ushbu bosqichda talabalar real yoki sun'iy yaratilgan muammoli vaziyatlar bilan ishlaydi. Muammoli vaziyatlar o'quv jarayonini hayotiylik bilan bog'lab, talabalarni mustaqil fikrlashga undaydi. Talabalar muammoni aniqlash, uni tahlil qilish, mavjud bilimlar asosida yechim variantlarini ishlab chiqish va eng maqbul qarorni tanlash jarayonida faol ishtirok etadi. Bu jarayon ularning nazariy bilimlarini amaliyot bilan integratsiya qilish imkonini beradi.

Muammoli o'qitish quyidagi kompetensiyalarni shakllantiradi:

- analitik va tizimli fikrlash;
- muammoni hal qilish (problem-solving);
- ijodiy yondashuv;
- mustaqil qaror qabul qilish.

Shuningdek, bu bosqich talabalarni kelajak kasbiy faoliyatiga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular real vaziyatlarga moslashishni o'rganadi.

### *4. Refleksiya va o'z-o'zini baholash (Reflection)*


Flipped Classroom modelining yakuniy bosqichi refleksiya hisoblanadi. Ushbu bosqichda talabalar o'z o'rganish faoliyatini tahlil qiladi, o'zlashtirilgan bilimlarni baholaydi va kelgusidagi rivojlanish yo'nalishlarini belgilaydi.

Refleksiya jarayoni yozma (kundaliklar, qisqa esse), og'zaki muhokama yoki testlar orqali amalga oshirilishi mumkin. Bu jarayon talabalarga o'z kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, xatolar ustida ishlash va o'z-o'zini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish imkonini beradi.

Mazkur bosqich quyidagi ko'nikmalarni rivojlantiradi:

- metakognitiv fikrlash;
- o'z-o'zini baholash;
- tanqidiy tahlil;
- uzluksiz o'rganish qobiliyati.

Natijada talabalar o'z o'rganish jarayonini ongli ravishda boshqarishga o'rganadi va bu ularning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini mustahkamlaydi.



**1-rasm. Flipped Classroom modeli asosida talabalar mustaqil ta'limi va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning konseptual modeli**

Mazkur tadqiqot doirasida Flipped Classroom modeli asosida talabalar mustaqil ta'limi va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning konseptual modeli ishlab chiqildi (1-rasmga qarang). Ushbu model o'quv jarayonini tizimli ravishda tashkil etish hamda pedagogik ta'sirning bosqichma-bosqich amalga oshirilishini aks ettiradi.

Model to'rt asosiy bosqichdan iborat bo'lib, ular o'zaro uzviy bog'langan holda ishlaydi: oldindan mustaqil o'rganish, interaktiv faoliyat, muammoli vaziyatlar asosida o'qitish va refleksiya. Har bir bosqich talabalar bilimni chuqurlashtirish bilan birga ularning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, modelda o'quv jarayonining yakuniy natijasi sifatida talabada mustaqil ta'lim olish kompetensiyasi, tanqidiy fikrlash va analitik yondashuv shakllanishi ko'zda tutilgan. Ushbu yondashuv Flipped Classroom modelining samaradorligini kompleks tarzda namoyon etadi. Ushbu model tadqiqotning metodologik asosini tashkil etadi.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari Flipped Classroom modelining talabalar mustaqil ta'limi va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Tajriba-sinov ishlari davomida talabalar faoliyati tizimli ravishda kuzatildi va natijalar tahlil qilindi.

*Olingan natijalar quyidagi ijobiy o'zgarishlarni aniqladi:*

- talabalar mustaqil ta'lim ko'nikmalari sezilarli darajada rivojlandi;
- o'quv motivatsiyasi va mashg'ulotga bo'lgan qiziqishi rivojlandi;
- tanqidiy va analitik fikrlash darajasi yuqori bosqichga ko'tarildi;
- auditoriya mashg'ulotlarida faol ishtirok va muloqot kuchaydi.

Xususan, tadqiqot davomida Flipped Classroom modelining har bir bosqichi alohida pedagogik natijalarni yuzaga keltirgani kuzatildi. Kuzatuv natijalari shuni ko'rsatdiki, Flipped Classroom modeli talabalar o'rtasida hamkorlikni kuchaytiradi, ularning ijtimoiy va kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantiradi hamda o'quv jarayonini yanada interaktiv va samarali tashkil etishga imkon yaratadi.

Olingan natijalar Flipped Classroom modelining zamonaviy pedagogikaning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan konstruktivistik yondashuv tamoyillariga to'liq mos kelishini

ko'rsatadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, bilim tayyor holda berilmaydi, balki o'quvchi tomonidan faol o'zlashtiriladi va individual tajriba asosida shakllantiriladi.

Flipped Classroom modelida aynan shu jarayon amalga oshiriladi: talabalar bilimni mustaqil ravishda o'zlashtirib, auditoriyada esa uni tahlil qiladi va qo'llaydi.

John Dewey ta'kidlaganidek, ta'lim jarayoni faoliyat va tajribaga asoslangan bo'lishi zarur [6, 47]. Ushbu g'oya Flipped Classroom modelining mohiyatiga to'liq mos keladi, chunki bu yondashuv talabaning faol ishtirokini ta'minlaydi va bilimni chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari ham talabalar o'quv jarayonida passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylanishini tasdiqladi. Bundan tashqari, olingan natijalar Flipped Classroom modelining tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdagi muhim rolini ko'rsatdi. Richard Paul va Linda Elder nazariyasiga ko'ra, tanqidiy fikrlash tahlil, baholash va asoslangan qaror qabul qilish jarayonida shakllanadi [7, 41]. Mazkur modelda aynan muhokama, muammoli vaziyatlar va refleksiya orqali ushbu ko'nikmalar faol rivojlanadi. Shuningdek, tadqiqot natijalari modelning quyidagi muhim kompetensiyalarni shakllantirishini ko'rsatdi:

*mustaqil fikrlash* – talabalar o'quv materialini mustaqil tahlil qilish va xulosa chiqarishga o'rganadi;

*muammoni hal qilish* – real vaziyatlar asosida qaror qabul qilish ko'nikmalari rivojlanadi;

*kommunikativ ko'nikmalar* – guruhli ishlash va bahs-munozaralar orqali muloqot madaniyati shakllanadi;

*analitik yondashuv* – axborotni chuqur tahlil qilish va baholash qobiliyati oshadi.

Biroq, Flipped Classroom modelini ta'lim jarayoniga samarali joriy etish uchun muayyan shart-sharoitlar talab etiladi. Tadqiqot davomida quyidagi muammolar aniqlashtirildi:

*texnik infratuzilmaning yetishmasligi* – barcha talabalar uchun sifatli internet va raqamli resurslarga kirish imkoniyati doimo mavjud emas;

*o'qituvchilarning metodik tayyorgarligi* – ushbu modelni samarali qo'llash uchun o'qituvchilar zamonaviy pedagogik va raqamli kompetensiyalarga ega bo'lishi zarur;

*talabalar motivatsiyasi* – ayrim talabalar mustaqil o'rganishga yetarli darajada tayyor emasligi kuzatiladi.

Shu bilan birga, yuqoridagi muammolarni bartaraf etish orqali Flipped Classroom modelining samaradorligini yanada oshirish mumkin. Xususan, raqamli ta'lim infratuzilmasini rivojlantirish, o'qituvchilar uchun malaka oshirish dasturlarini tashkil etish va talabalarni mustaqil ta'limga bosqichma-bosqich moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, olingan natijalar va ilmiy tahlillar Flipped Classroom modelining nafaqat nazariy jihatdan asoslangan, balki amaliy jihatdan ham samarali ekanligini ko'rsatadi. Ushbu model zamonaviy ta'lim tizimida talabalar kompetensiyalarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

## **XULOSA**

Mazkur tadqiqot natijalari Flipped Classroom modelining oliy ta'lim tizimida talabalar mustaqil ta'limini rivojlantirish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda samarali pedagogik vosita ekanligini tasdiqladi. Tadqiqot davomida modelning nazariy asoslari, amaliy qo'llanish mexanizmlari hamda pedagogik samaradorligi kompleks tarzda tahlil qilindi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, Flipped Classroom modeli an'anaviy ta'limdan farqli ravishda o'quv jarayonini talaba markaziga yo'naltiradi. Ushbu yondashuv talabalarni passiv tinglovchidan faol bilim egallovchiga aylantirib, ularning o'quv jarayonidagi ishtirokini sezilarli darajada oshiradi. Ayniqsa, modelning bosqichma-bosqich tashkil etilishi – oldindan mustaqil o'rganish, interaktiv faoliyat, muammoli vaziyatlar asosida o'qitish va

refleksiya – talabalarning bilimni chuqur o'zlashtirishiga hamda uni amaliyotda qo'llashga imkon yaratadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, Flipped Classroom modeli quyidagi muhim pedagogik natijalarga olib keladi:

- talabalar mustaqil ta'lim olish kompetensiyasi shakllanadi va rivojlanadi;
- tanqidiy va analitik fikrlash darajasi oshadi;
- muammoni hal qilish va qaror qabul qilish ko'nikmalari rivojlanadi;
- o'quv motivatsiyasi va darsga qiziqish ortadi;
- kommunikativ va hamkorlik ko'nikmalari mustahkamlanadi.

Umuman olganda, Flipped Classroom modeli oliy ta'lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiya sifatida katta imkoniyatlarga ega bo'lib, u zamonaviy ta'lim talablariga javob beruvchi kompetensiyalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu modelni ta'lim jarayoniga keng joriy etish orqali yuqori malakali, mustaqil fikrlovchi va raqobatbardosh mutaxassislarini tayyorlashga erishish mumkin. Kelgusida mazkur yo'nalishda olib boriladigan tadqiqotlar Flipped Classroom modelini raqamli ta'lim platformalari bilan integratsiya qilish, uning samaradorligini empirik ma'lumotlar asosida chuqurroq tahlil qilish hamda turli fanlar kesimida qo'llash imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-son. Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida.
3. Abeysekera L., Dawson P. Motivation and Cognitive Load in the Flipped Classroom: Definition, Rationale and a Call for Research. – Higher Education Research & Development, 2015. – pp. 1–14.
4. Bergmann J., Sams A. Flip Your Classroom: Reach Every Student in Every Class Every Day. – Washington: International Society for Technology in Education, 2012. – 112 p.
5. Bishop J. L., Verleger M. A. The Flipped Classroom: A Survey of the Research. – ASEE National Conference Proceedings. – Atlanta, 2013. – pp. 1–18.
6. John Dewey. Experience and Education. – New York: Macmillan, 1938. – 91 p.
7. Richard Paul, Linda Elder. Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Learning and Your Life. – Pearson Education, 2008. – 230 p.